

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARINING VUJUDGA KELISHI MUXTASAR TARIXI HAMDA KONSTITUSIYAVIY HUQUQIY MAQOMI MUSTAHKAMLANIB BORISHI

Bahodirov Muhammad Umedjon o‘g‘li

Muallif: O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish  
akademiyasi bitiruvchisi, mustaqil izlanuvchilikka nomzod.

O‘zbekiston Respublikasida Prokuratura organlari tashkil etilishi mustaqillikning dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 8-yanvar 1992-yilda **“O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to‘g‘risida”**gi PF-313-sonli Farmonini imzolagan. Unda, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlar aniq va bir xil ijro etilishi ustidan oliy nazoratni ta‘minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, jumhuriyat suverenitetini himoya qilish maqsadida, Ittifoq qaramog‘idagi O‘zbekiston SSR prokuraturasi O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirilishi, Respublika hududida ish ko‘rayotgan O‘rta Osiyo transport prokuraturasi, uning organlari negizida viloyat prokuraturasi huquqiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Transport prokuraturasi tashkil etilib, u O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasiga bo‘ysundirilishi, Prokuratura O‘zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi, Iqtisodiyot komiteti bilan birgalikda bir hafta muddat ichida respublika prokuraturasi organlarining tuzilishiga, ularni moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta‘minlashga oid takliflarni ishlab chiqilishi hamda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi, **“O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi** bir oy muddat ichida tayyorlanishi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi ko‘rib chiqishi uchun taqdim etilishi, Mudofaa ishlari vazirligida, uning joylardagi boshqarmalari va bo‘limlarida xamda jumhuriyat hududida joylashgan ichki qo‘shinlarda qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi prokurori zimmasiga yuklanishi kabilar keltirib o‘tilgan.<sup>1</sup>

Ushbu hujjat 1991-yilning avgustida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunga asoslangan holda qabul qilingan bo‘lib, mamlakatimiz prokuraturasining sovet ittifoqi bosh prokuraturasiga

<sup>1</sup> Qarang <https://lex.uz/docs/-147159>

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

tobelikdan xalos bo‘lishini ta’minlagan. Chunki, 1990-yilning 1-noyabr kuni qabul qilingan qonun bilan O‘zSSR Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, O‘zbekiston Bosh prokurori faqat mamlakat parlamenti va prezident oldida hisobdor hamda javobgar ekani belgilab qo‘yilgan edi.<sup>2</sup>

Shuningdek, Bosh prokuror hamda uning o‘rinbosarlari ilgariqday SSSR Bosh prokurori tomonidan emas, balki O‘zbekiston prezidenti taqdimnomasiga binoan mamlakat parlamenti tomonidan tayinlanishi joriy etiladi. O‘zSSR Oliy Soveti qarori bilan 1990-yilning 1-noyabr kuni Bo‘ritosh Mustafoyev O‘zSSR prokurori etib tayinlanadi.

Ilgari viloyat, tuman va shahar prokurorlarini tayinlash uchun ham SSSR prokuraturasi roziligi talab qilingan bo‘lsa, qonunchilikka kiritilgan o‘zgarishdan so‘ng bu masalalar O‘zbekiston bosh prokurori vakolatiga o‘tkaziladi. Nihoyat, O‘zbekistondagi prokuratura xodimlarining to‘liq mustaqilligi, bundan buyon SSSR prokuraturasiga bo‘ysunmasligi rasman e‘lon qilinadi. SSSR prokuraturasi rahbariyati o‘zbekistonlik prokuratura organlari xodimlariga nisbatan ochiqdan ochiq adovatli munosabatda bo‘lishadi, barchasini kuch bilan yana avvalgi holatga qaytarish uchun zo‘r berib harakat qilishadi. Ammo, yuqorida ta’kidlanganidek, **“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun** O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining Sovet Ittifoqi Bosh prokuraturasiga tobelikdan xalos bo‘lishini ta’minlaydi.

Aynan **“O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to‘g‘risida”gi PF-313-sonli Farmon** imzolangan yili 8-dekabrda mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan hamda ushbu Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi mustahkamlab qo‘yilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi to‘liq prokuratura organlariga bag‘ishlangan.

Jumladan, ushbu bobning 118-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, 119-moddada:

<sup>2</sup> Qarang <https://kun.uz/uz/news/2022/01/09/mustafoyevdan-yoldoshevgacha-ozbekistonning-olti-bosh-prokurori-haqida>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

- Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qilishi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining Prokurori O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanishi;
- Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanishi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati — besh yil ekanligi belgilangan.

120-moddada esa:

- O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo‘ysunib amalga oshirishlari;
- Prokurorlar o‘z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a‘zolikni to‘xtatib turishlari;
- Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanishi kabilar ko‘rsatib o‘tilgan.

Va nihoyat, 121-moddada:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi ta‘qiqlanishi;
- Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkinligi belgilangan.<sup>3</sup>

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan **29-avgust 2001-yilda “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli** O‘zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi qonuni qabul qilinadi. Unga muvofiq prokuratura yagona markazlashtirilgan tizimga ega bo‘lgan hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan organ hisoblanadi.

<sup>3</sup> Qarang <https://lex.uz/docs/-20596#-39960>

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Dastlab shunchaki O‘zbekiston prokuraturasi deb yuritilgan idora 2001-yil 29-avgustda «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahriri qabul qilingach, O‘zbekiston Bosh prokuraturasiga aylantiriladi.<sup>4</sup>

O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.<sup>5</sup>

Qonunchilikka ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;
- sudlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko‘rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo‘lgan sud hujjatlariga protest keltirish;
- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

<sup>4</sup> Qarang <https://kun.uz/uz/news/2022/01/09/mustafoyevdan-yoldoshevgacha-ozbekistonning-olti-bosh-prokurori-haqida>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli yangi tahrirdagi qonuni 3-moddasi



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.<sup>6</sup>

Prokuratura organlari o'z faoliyatini birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik asosida olib borishlari qonunchiligimizda belgilangan.

Shu o'rinda qiyoslaydigan bo'lsak, **Qozog'iston Respublikasi Prokuraturasi** o'z vakolatlarini qonuniylik, boshqa davlat organlari va mansabdor shaxslardan mustaqillik, faqat Qozog'iston Respublikasi Prezidenti oldida hisobdorlik, oshkoralik tamoyillari asosida amalga oshiradi.<sup>7</sup>

**Qirg'iziston Respublikasi Prokuraturasi** esa o'z faoliyatini qonuniylik, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish, oshkoralik, prokurorning mustaqilligi va uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, prokuror talablarini bajarish majburiyati, quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchiga bo'ysunishi kabi tamoyillarga asoslangan holda olib borishi **Qirg'iziston Respublikasining "Qirg'iziston Respublikasi Prokuraturasi to'g'risida"gi 114-sonli Konstitutsiyaviy qonuni 4-moddasida ko'rsatib o'tilgan.**

Prinsiplar, ya'ni tamoyillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu shu organlarning ma'lum bir qadriyatlar asosida faoliyat olib borishini, bu qadriyatlardan og'ishmay harakat qilishi kerakligini ko'rsatib, eslatib turadi.

Prokuratura organlari ustida nazorat olib borishi mumkin bo'lgan shaxslar tashkilotlar va boshqalar nazorat predmeti hisoblanadi.

Prokuratura nazorat predmetiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga ko'ra fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli yangi tahrirdagi qonuni 4-moddasi

<sup>7</sup> Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi 155-VII-sonli Konstitutsiyaviy qonuni 3-moddasi



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi.

Bundan tashqari jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratda jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalar va xabarlarni ko‘rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonunchilikda belgilangan protsessual tartibi, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat predmetidir.

Shuningdek, ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazoratda nazorat predmeti quyidagilar hisoblanadi:

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini ijro etish tartibi va sharoitlari haqidagi qonunchilikka rioya etilishi;
- ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlarning, shuningdek jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini qo‘llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi;
- jinoyat-ijroiya qonunchiligini qo‘llayotgan organ va muassasalar, mansabdor shaxslar faoliyatida qonunchilikka rioya etilishi.<sup>8</sup>

Prokuratura organlari tashkil etilganidan buyon davomli ravishda isloh qilib borildi. Xususan, bu borasida 8-yanvar 1992-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to‘g‘risida”gi PF-313-sonli Farmondan keyin hozirgi kunga qadar bir qancha hujjatlar qabul qilindi.

Bunga misol qilib “Prokuratura organlarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlashdagi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 15-fevral 2018-yilgi PF-5343-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5019-sonli “Ijtimoiy-

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli yangi tahrirdagi qonuni



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida**gi farmoniga o'zgartirish va **qo'shimchalar kiritish haqidagi 7-may 2018-yilgi PF-5436-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**gi 8-may 2018-yilgi PF-5438-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va boshqalarni aytishimiz mumkin.

Xususan, **"Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**gi 8-may 2018-yilgi PF-5438-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida prokuratura organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish kabi chora-tadbirlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Xususan, 2007-yildan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilmasida rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va prokuratura organlari xodimlarining malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi Oliy o'quv kurslari faoliyat yuritmoqda. Oliy o'quv kurslarida 2007 — 2017-yillar davomida 4 318 nafar xodimning malakasini oshirish va 186 nafar rahbar kadrlarni qayta tayyorlash ta'minlandi.<sup>9</sup>

Shu bilan birga, prokuratura organlari faoliyatining mutlaqo yangi yo'nalishlari belgilanganligi, ularning amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlardagi o'rni kuchaytirilganligi yuklatilgan vazifalarni samarali bajara oladigan munosib kadrlar tarkibini shakllantirishni talab etmoqda.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek, prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish maqsadida prokuratura organlari xodimlarida bilim va ko'nikmalarni, shu jumladan, tizimli tahlil va tanqidiy fikrlashni, shaxsiy va ishchanlik sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirishni, qonunlarga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishi yuzasidan adolat va mas'uliyat kabi yuksak tuyg'ularini shakllantirish va mustahkamlashni ta'minlovchi xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirishning yagona tizimini tashkil etish, zamonaviy pedagogik va

<sup>9</sup> Qarang <https://lex.uz/uz/docs/-3727063>



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, masofaviy ta'limni, o'qitish va treninglarni interfaol hamda muammoli-vaziyatli uslublarini keng joriy etish, prokuratura organlari faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini qo'riqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish, qonunchilikni takomillashtirish va yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish, prokuratura organlari faoliyati yo'nalishlari bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, jinoyatchilik holati o'zgarishini kriminologik prognoz qilish, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini metodologik va konsultativ ta'minlash va boshqa O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilanishi ko'rsatib o'tilgan.<sup>10</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, prokuratura organlari huquqiy maqomining huquqiy asoslari yetarlicha va bu sohadagi huquqiy islohotlar davomli ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bu kabi islohotlar, qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, prokuratura organlarining yanada yaxshilanishiga, inson huquqlarining yanada mustahkamlanishiga, davlatda qonunchilik ustidan nazorat kuchayishiga, qonuniylikning quloch yozishiga, umumiy qilib aytganda, qonun ustuvor bo'lgan yurt qurishda katta rol o'ynaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 8-dekabr 1992-yildagi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari to'g'risida"gi 8-yanvar 1992-yildagi PF-313-sonli Farmoni;

<sup>10</sup> "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 8-may 2018-yilgi PF-5438-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi 31-avgust 1991-yilgi 336-XII-sonli qonuni;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 29-avgust 2001-yildagi 257-II-sonli qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prokuratura organlarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlashdagi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 15-fevral 2018-yilgi PF-5343-sonli Farmoni;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 8-may 2018-yilgi PF-5438-sonli Farmoni;
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish to‘g‘risidagi 9-dekabr 1992-yildagi 747-XII-sonli qarori;
8. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 29-avgust 2001-yildagi 257-II-son qonuni;
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28-noyabr 2002-yildagi 415-sonli qarori;
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 8-avgust 2017-yildagi PQ-3182-sonli Qarori;
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 8-yanvar 2019-yildagi PQ-4102-sonli Qarori;
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 23-avgust 2021-yildagi 536-sonli qarori;
13. O.M.Madaliev “PROKUROR NAZORATI”. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (Umumiy qism.) T.: «ILM ZIYO», 2012. – 398 b.;



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

14. B.X. Po'latov. Prokuror nazorati. Darslik. –T.: 2008. 520 b.;

15. O.M. Madaliev Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. –T.: TDYI nashriyoti, 2009. 424 b.;

16. Mualliflar jamoasi. “Prokuror nazorati”. Darslik. T., TDYuU, 2019.-190 b.;

17. Maxbubov M. “O'zbekistonda prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanishi”. – T., 1991.;

### Internet resurslar

1. [lex.uz](http://lex.uz);
2. [norma.uz](http://norma.uz);
3. [siat.stat.uz](http://siat.stat.uz);
4. [review.uz](http://review.uz);
5. [proacademy.uz](http://proacademy.uz);
6. [president.uz](http://president.uz);
7. [e-library.namdu.uz](http://e-library.namdu.uz);
8. [iref.kz](http://iref.kz);
9. [cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru);
10. [www.legal-tools.org](http://www.legal-tools.org);
11. [verejnazaloba.cz](http://verejnazaloba.cz);
12. [www.law.yale.edu](http://www.law.yale.edu).

E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE  
SERIES